

BYUDJET SIYOSATINING IJTIMOIY-IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

*Sobirova Ozoda Rustamovna
UNIVERSITY SCIENCE AND TECHNOLOGIES
Fan va texnologiyalar universiteti Moliya va
moliyaviy texnologiyalar
fakulteti 3-bosqich 302-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatning byudjet siyosati va uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganiladi. Byudjet siyosatining tarkibi, maqsadlari, fiskal tartibot, ijtimoiy himoya va iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasi nazariy va amaliy misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasida byudjet siyosati orqali barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Byudjet siyosati, fiskal barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, soliqlar, davlat xarajatlari, fiskal intizom, iqtisodiy o'sish, byudjet defitsiti.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi bevosita davlat tomonidan yuritilayotgan byudjet siyosatiga bog'liq. Byudjet siyosati orqali davlat soliq yig'imlarini belgilaydi, xarajatlar hajmini boshqaradi hamda iqtisodiy o'sish, bandlik va ijtimoiy himoya tizimlarini tartibga soladi. Aynan ushu siyosat yordamida mamlakat ichki resurslari qay darajada samarali ishlatilayotganini, aholining turmush darajasi qanday ko'tarilayotganini baholash mumkin.

1. Byudjet siyosatining mohiyati va vazifalari

Byudjet siyosati — bu davlat tomonidan moliyaviy vositalar orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish siyosati bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Soliq siyosati (daromadlarni shakllantirish),

Xarajatlar siyosati (sarmoya, ijtimoiy himoya, infratuzilma),

Byudjet muvozanatini saqlash,

Byudjet defitsitini nazorat qilish.

Ushbu elementlar orqali davlat iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi yoki cheklaydi, daromadlar taqsimotini tenglashtiradi va iqtisodiy inqirozlarni yumshatadi.

2. Byudjet siyosatining ijtimoiy barqarorlikka ta'siri

Ijtimoiy barqarorlik — bu aholining farovonligi, ijtimoiy tenglik, bandlik va hayot sifati bilan bog'liq omillardir. Byudjet siyosati ijtimoiy barqarorlikka quyidagi yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadi:

a) Ijtimoiy xarajatlar orqali himoya tizimini qo'llab-quvvatlash

Davlat byudjeti orqali pensiyalar, nafaqalar, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarga sarmoya yo'naltiradi.

b) Bandlik siyosatini moliyalashtirish

Ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan dasturlar moliyaviy ko‘mak orqali amalga oshiriladi.

c) Aholi daromadlarini tenglashtirish

Progressiv soliq tizimi va ijtimoiy transferlar orqali daromadlar farqi yumshatiladi.

3. Byudjet siyosatining iqtisodiy barqarorlikka ta’siri

a) Makroiqtisodiy muvozanatni ta’minalash

Byudjet daromadlari va xarajatlarining muvozanati inflyatsiya, defitsit va tashqi qarzlarga ijobiy ta’sir qiladi.

b) Investitsiyalarning rag‘batlantirilishi

Davlat kapital sarmoyalari iqtisodiyotda yangi tarmoqlar rivojlanishini ta’minlaydi, xususiy sektorni jalg etadi.

c) Inflyatsiyaga ta’siri

Cheklangan byudjet defitsiti va mas’uliyatli xarajat siyosati narxlar barqarorligiga yordam beradi.

4. O‘zbekistonda byudjet siyosati va barqarorlik

O‘zbekiston Respublikasida byudjet siyosati orqali quyidagi yo‘nalishlarda barqarorlikka erishish maqsad qilingan:

Ijtimoiy sohalarga ajratmalar: 2024-yilda davlat byudjetining 50% dan ortig‘i ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalariga yo‘naltirildi.

Fiskal intizom: Byudjet defitsiti YaIMning 3% dan oshmasligi belgilangan.

Soliq islohotlari: Yagona soliq stavkalari joriy qilinib, soliq yuki kamaytirildi.

Raqamlashtirish: Davlat xarajatlari va tushumlari "G‘aznachilik" orqali ochiq va shaffof boshqarilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida byudjet siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligini oshirish borasida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023–2024-yillarda davlat byudjeti xarajatlarining 55 foizdan ortig‘i ijtimoiy sohalarga – ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikni ta’minalash kabi yo‘nalishlarga yo‘naltirilgani iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va joylardagi soliq tushumlari hisobidan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida ham yangicha yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy faollikni oshiradi, balki hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, byudjet jarayonlarining ochiqligi va jamoatchilik nazoratining kuchayishi orqali davlat xarajatlarining samaradorligi ta’milanmoqda. “Ochiq byudjet” portali orqali fuqarolar davlat xarajatlari ustidan bevosita nazorat o‘rnatishi mumkin bo‘layotgani, aholining iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirayotgan muhim omil sifatida baholanmoqda.

Yana bir muhim jihat – byudjet siyosatida qarz yuki va byudjet taqchilligini nazorat ostida ushlab turish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik yondashuvlar ilgari surilmoqda. Bu esa tashqi investorlar ishonchini oshiradi va ichki iqtisodiy muvozanatni saqlab qolishda asosiy vositalardan biridir.

Xulosa o'rnida, Byudjet siyosati davlatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi eng muhim vositalaridan biridir. U orqali aholining ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatiladi, iqtisodiyotda barqaror o'sish ta'minlanadi va turli inqirozlarning oldi olinadi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali byudjet siyosati iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikka erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilgi byudjet to'g'risidagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti – www.mf.uz
3. Musayev, A. (2022). Davlat moliyasi. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Tanzi, V. & Schuknecht, L. (2000). Public Spending in the 20th Century: A Global Perspective.